

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 11 977,5 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar- 11 645,6 mlrd. so‘mni (103,3 %), o‘rmon xo‘jaligi-289,2 mlrd. so‘mni (101,6 %), baliq xo‘jaligi - 42,7 mlrd. so‘mni (116,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,3 % ni tashkil etdi.



11 977,5

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



11 645,6

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



289,2

O‘rmon xo‘jaligi


03




42,7

Baliq xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik

2021- yilning yanvar- iyun yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,4 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar, 2,4 foizi - o'rmon xo'jaligi, 0,4 foizi - baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2021- yilning yanvar- iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (1 375,0 mlrd. so'm) va Jalaquduq (1 136,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (61,0 mlrd. so'm), Andijon shahri (358,0 mlrd. so'm) va Ulug'nor tumanini (410,0 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,3 %) yuqori o'sish sur'atlari Marhamat (108,0 %) va Ulug'nor (106,2 %) tumanlarida kuzatildi. Jalaquduq (100,0 %), Baliqchi (101,3 %), Izboskan tumanida (101,5 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 11 580,6 mlrd. so'mni yoki 2020-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 6 979,1 mlrd. so'mni (102,7 %), chorvachilik mahsulotlari- 4 601,5 mlrd. so'mni (104,1 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi

60,3 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



39,7 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,2 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 27,8 foizi - fermer xo'jaliklariga, 2,0 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha
xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2021- yilning yanvar- iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xo'jaobod tumanida (40,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bo'ston tumanida (8,2 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Xonobod shahrida (0,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanida (54,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xonobod shahrida (0,0 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2021- yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6 979,1 mlrd. soʻmni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 60,3 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar






**Andijon viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, ming t**




Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2021- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 569 426,4 t. sabzavotlar (2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsat-kichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 78,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Andijon viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming t.




O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 169,2 ming t kartoshka (2020- yilning yanvar - iyuniga nisbatan 5,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 81,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




**Andijon viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, ming tonna**



Poliz




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 19,2 ming t poliz (2020- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 1,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 74,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




Andijon viloyati bo'yicha
poliz yetishtirish
hajmi, tonna



Mevalar va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 236,3 ming t mevalar va rezavorlar (2020- yilning yanvar - iyuniga nisbatan 1,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 58,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




Andijon viloyati bo'yicha
mevalar va rezavorlar yetishtirish
hajmi, tonna



Uzum




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 365,3 tonna uzum (2020- yilning yanvar - iyuniga nisbatan 29,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 49,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



**Andijon viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2021- yilning yanvar -iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 4 601,5 mlrd. soʻmni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 39,7 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 75,1 ming t. goʻsht (2020- yilning yanvar - iyuniga nisbatan 4,4 % ga koʻp), 341,5 ming t. sut (4,3 % ga koʻp), 281,0 mln. dona tuxum (2,0 % ga koʻp), va 3 544,3 t. baliq (16,8 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 75,1 ming t.go'sht (2020- yilning yanvar -iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Andijon viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, *tonna***




Sut


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 341,5 ming t. sut (2020- yilning yanvar - iyuniga nisbatan 4,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Andijon viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 281,0 mln. dona tuxum (2020- yilning yanvar - iyuniga nisbatan 2,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Andijon viloyati bo'yicha
olingan tuxum hajmi,
ming dona**




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 544,3 t. (2020- yilning yanvar – iyuniga nisbatan 16,8 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 55,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Andijon viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 4,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 94,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 19,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 79,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 71,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 066,6 mingtaga yetdi.


2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 16,5 ming taga (1,6 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, mingbosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Andijon viloyati
bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 366,0 mingtaga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 6,4 ming taga (1,8 %) ko'paydi.


Sigirlar




Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Andijon viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 477,2 mingtaga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 34,4 ming taga (2,4 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 94,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Andijon viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 6 842 taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 316 taga (4,8 %) ko'paydi.

Otlar



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 79,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.





**Andijon viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2021- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 204,5 ming taga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 528,3 ming taga (6,9 %) ko'paydi.

Parrandalar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 71,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Andijon viloyati bo'yicha
parrandalarning umumiy bosh soni,
ming bosh**

